

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ARAB TILIDA FE'LLAR BOSHQARUVIDA USTUNLIK MASALASI

(تنازع الفعلين)

Ikromjonov Akmaljon Maxmudjonovich

Oriental universiteti, dotsent.

e-mail: akmaljon.ikromjonov@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-0488-5672>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada arab tilidagi *at-tanazu'* (التنازع) hodisasi, ya'ni ikki fe'lning bitta otni boshqarishda ustunlikka intilishi masalasi tahlil qilingan. Tadqiqotda **tanazu'*ning asosiy ko'rinishlari — egaga oid, to'ldiruvchiga oid va aralash holatlar misollar asosida yoritilgan. Shuningdek, Basra va Kufa nahv maktablari o'rtasidagi qarashlar farqi, ularning naqliy va aqliy dalillari qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada har ikki maktab yondashuvining nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari arab tili sintaksisini chuqurroq anglash va *tanazu'* hodisasini to'g'ri qo'llashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: *at-tanazu'*, foil, ma'ul, idmar qabl az-zikr, Basra, Kufa.

ПРОБЛЕМА ПРЕДПОЧТЕНИЯ В УПРАВЛЕНИИ ГЛАГОЛАМИ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

(تنازع الإصلاحين)

Икромжонов Акмалжон Махмуджонович

Университет Oriental, доцент.

Аннотация.

В статье анализируется явление *ат-таназу'* (التنازع) в арабском языке, при котором два глагола претендуют на управление одним существительным. На основе примеров рассматриваются основные виды *таназу'*: относящиеся к подлежащему, дополнению, а также смешанные случаи. Кроме того, проводится сравнительный анализ различий во взглядах грамматических школ Басры и Куфы, а также их традиционных и рациональных аргументов. Раскрывается теоретическое и практическое значение подходов обеих грамматических школ. Результаты исследования имеют важное значение для более глубокого понимания синтаксиса арабского языка и правильного применения явления *таназу'*.

Ключевые слова: *ат-таназу'*, фа'иль, маф'уль, идмар кабл аз-зикр, Басра, Куфа.

THE PROBLEM OF PREFERENCE IN THE CONTROL OF VERBS IN THE ARABIC LANGUAGE

(تنازع الإصلاحين)

Ikromjonov Akmaljon Maxmudjonovich

Oriental University, Associate Professor.

Abstract.

This article analyzes the phenomenon of *at-tanāzu'* (التنازع) in Arabic, in which two verbs compete to govern a single noun. The study examines the main types of *tanāzu'* through relevant examples, including cases involving the subject, the object, and mixed constructions. It also provides a comparative analysis of the differences between the Basran and Kufan schools of Arabic grammar, including their transmitted and rational arguments. The theoretical and practical significance of the approaches adopted by both grammatical schools is discussed. The findings contribute to a deeper understanding of Arabic syntax and the correct application of the phenomenon of *tanāzu'*.

Keywords: *at-tanāzu'*, fā'il, maf'ul, idmār qabl al-dhikr, Basra, Kufa.

Kirish. Arab tili dunyo tillari orasida o'zining mukammal grammatik tizimi, chuqur mantiqiy qoidalari va yuqori darajada tartiblangan sintaktik qurilishi bilan alohida o'rin tutadi. Ushbu tilda fe'l va ism o'rtasidagi munosabatlar nahv ilmining asosiy tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Xususan, fe'llarning o'zidan keyin keladigan ismlarni boshqarish xususiyati arab tili sintaksisining muhim qirralaridan bo'lib, bu jarayon tildagi ma'no aniqligi va uslubi ixchamlikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mavzuni o'rganish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy tomondan ham muhimdir. Chunki *at-tanazu'* holatlarini to'g'ri anglash va qo'llash arab tilidagi matnlarni to'g'ri tahlil qilish, tarjima jarayonida xatolarning oldini olish hamda nutqda uslubi ravonlikni ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu masala klassik nahv manbalarida keng yoritilgan bo'lib, uni o'rganish orqali arab tilshunosligining chuqur qonuniyatlarini anglash mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Arab tilida fe'llar o'zidan keyin keladigan bitta otni boshqarishda ustunlikka ega bo'lishga intiladi. Ushbu holat klassik nahv terminologiyasida "*at-tanazu'*" (التَّانُزُ) holati" deb ataladi. Ustunlikka intilgan fe'llar o'timli yoki o'timsiz ma'noga ega bo'lishi mumkin. Ushbu fe'llar o'zidan keyin kelayotgan bitta otni bir vaqtning o'zida ega (الْفَاعِلُ) yoki *vositasiz to'ldiruvchi* (بِهِ الْمَفْعُولُ) sifatida boshqarishga intiladi. Ayrim holatlarda ikki fe'l bir vaqtning o'zida bitta otning ham ega, ham to'ldiruvchi bo'lishini talab qiladi. Bunda uch xil holat kuzatiladi:

Birinchi holat: fe'llarning o'zidan keyin kelayotgan otni ega sifatida boshqarishda ustunlikka intilishi [1; 30-b.]. Bunda ikkala fe'l o'timli va o'timsiz ma'noda kelishi mumkin. Masalan:

زَيْدٌ وَأَكْرَمَنِي ضَرَبْتَنِي

Zayd meni urdi va hurmat qildi (*so'zma-so'z: Meni urdi va meni hurmat qildi Zayd*).

Mazkur misolda kelgan ضَرَبَ va أَكْرَمَ fe'llarining har biri o'zidan keyin turgan زَيْدُ so'zining ega (الفاعل) bo'lishini talab qiladi.

Ikkinchi holat: fe'llarning o'zidan keyin kelayotgan otni *to'ldiruvchi* (بِهِ الْمَفْعُولُ) sifatida boshqarishda ustunlikka intilishi [2; 142-b.]. Bunda ikkala fe'l o'timli ma'noda keladi va ikkisi ham otning o'ziga to'ldiruvchi bo'lishini taqozo qiladi. Masalan:

زَيْدًا وَأَكْرَمْتُ ضَرَبْتُ

Men Zaydni urdim va hurmat qildim. (*So'zma-so'z: Men urdim va hurmat qildim Zaydni*).

Uchinchi holat: fe'llarning o'zidan keyin kelayotgan otni bir vaqtda ham ega (الْفَاعِلُ), ham *to'ldiruvchi* (بِهِ الْمَفْعُولُ) sifatida boshqarishda ustunlikka intilishi. Bunda ikkala fe'l o'timli ma'noda keladi va ikki xil holat kuzatiladi:

a) fe'llarning birinchisi otning o'ziga ega bo'lishini, ikkinchisi esa unga to'ldiruvchi bo'lishini taqozo qiladi. Masalan:

زَيْدًا وَأَكْرَمْتُ ضَرَبْتَنِي

So'zma-so'z: Meni urdi va men Zaydni hurmat qildim.

زَيْدًا وَضَرَبْتُ أَكْرَمَنِي

So'zma-so'z: Meni hurmat qildi va men Zaydni urdim.

b) fe'llarning birinchisi otning o'ziga to'ldiruvchi bo'lishini, ikkinchisi esa unga ega bo'lishini taqozo qiladi. Masalan:

زَيْدٌ وَأَكْرَمَنِي ضَرَبْتُ

So'zma-so'z: Men urdim va Zayd meni hurmat qildi.

زَيْدٌ وَضَرَبْتَنِي أَكْرَمْتُ

So'zma-so'z: Meni hurmat qildim va Zayd meni urdi.

Tahlil qilingan uch holat (egaga nisbatan tanazu', to'ldiruvchiga nisbatan tanazu' va aralash holat) shuni ko'rsatadiki, fe'lning o'timli yoki o'timsiz bo'lishi sintaktik vazifalar taqsimotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, ayrim holatlarda bir otning ham ega, ham to'ldiruvchi vazifasida kelish ehtimoli arab tili sintaksisining funksional moslashuvchanligini namoyon qiladi.

Yuqorida zikr qilingan holatlarda otni boshqarishda qaysi fe'lga ustunlik berish xususida Basra va Kufa nahv ilmi maktablari vakillari o'z qarashlarini bayon qilishgan. Basra maktabi vakillariga ko'ra, birinchi fe'lga ustunlik berish mumkin bo'lgani holda ikkinchi fe'lga ustunlik beriladi, Kufa maktabi vakillariga ko'ra esa, ikkinchi fe'lga ustunlik berish mumkin bo'lgani holda birinchi fe'lga ustunlik beriladi [3; 192-b.].

MUHOKAMA

Basra maktabi nahv olimlarining dalillari naqliy va aqliy dalillardir. Naqliy dalil sifatida "فَطْرًا عَلَيْهِ أَفْرَعُ أَثُونِي" *ma'nosi:* "Menga (eritilgan mis) keltiringlar, uning ustidan eritilgan misni quyurman" oyati karimasi keltiriladi. Oyatda ikkinchi fe'lga boshqaruv ustunligi berilgan. Agar birinchi fe'lga ustunlik berilganida fe'l "عَلَيْهِ أَفْرَعُ" shaklida kelgan bo'lardi. Aqliy dalil shuki, ikkinchi fe'l otga yaqin turadi va boshqaruv ustunligi unga berilsa, ma'noda ziddiyat yuzaga kelmaydi. Shuning uchun shu fe'lga ustunlik berish afzal sanaladi [4; 79-b.].

Kufa maktabi vakillari birinchi fe'lga ustunlik berish masalasida qiyosiy dalil sifatida Imru'ul-Qaysning ushbu baytini keltirishadi:

مَعِيشَةٍ لِأَسْمَى أَسْعَى مَا أَنَّ قَلْو

الْمَالِ مِنْ قَلِيلٍ أَطْلُبُ وَلَمْ كَفَانِي

Men intilgan narsa yuksak hayot uchun bo'lganida edi,

Yetar edi va men oz miqdordagi molni talab qilardim [5; 98-b.].

Shoir boshqaruvda birinchi fe'lga ustunlik bergan. Agar ikkinchi fe'lga ustunlik berganida, "قَلِيلٌ" so'zini tushum kelishigiga qo'ygan bo'lardi. Birinchi fe'lga ustunlik berishning afzal ekanining aqliy dalili shuki, ikkinchi fe'lga ustunlik berilsa, bu holat "الذِّكْرُ قَبْلَ الْإِضْمَارِ" — "*so'zdan oldin unga qaytuvchi olmoshning zikr etilishi*" deb ataluvchi holatning yuzaga kelishiga olib keladi.

NATIJALAR

Basra maktabi qarashiga ko'ra, otni boshqarishda ikkinchi fe'lga ustunlik berilsa, yuqorida o'tgan uchta holatdan kelib chiqib, quyidagi to'rt ko'rinish yuzaga keladi:

1. Ikkala fe'l *egani* (الْفَاعِلُ) taqozo qilganida ega birinchi fe'lga ega vazifasida keluvchi "zamir" shaklida (son ko'rsatkichi shaklida) biriktiriladi va ushbu "zamir" tushirib qoldirilmaydi. Masalan:

ضَرَبْتَنِي وَأَكْرَمَنِي زَيْدَانِ

Ikki Zayd meni urishdi va meni hurmat qilishdi.

زَيْدُونِ وَأَكْرَمَنِي ضَرَبُونِي

Zaydlar meni urishdi va meni hurmat qilishdi.

2. Ikkala fe'l *to'ldiruvchini* (بِهِ الْمَفْعُولُ) taqozo qilgan holatda *to'ldiruvchini* keltirishga ehtiyoj bo'lmagan vaziyatda uni birinchi fe'lga birikma olmosh shaklida biriktirilmaydi, tushirib qoldiriladi. Masalan: ضَرَبْتُ زَيْدِينَ وَأَكْرَمْتُ ضَرَبْتُهُمَا deb, ضَرَبْتُ fe'lga to'ldiruvchi birikma olmosh shaklida keltirilmaydi, balki أَكْرَمْتُ ضَرَبْتُ deb aytiladi.

Biroq, fe'llar حَسِبَ (hisobladi) va عَلِمَ (deb bildi) singari fe'llardan bo'lib, to'ldiruvchini keltirishga ehtiyoj bo'lsa, uni keltirish shart bo'ladi. Masalan: حَسِبْتِي مُنْطَلِقًا وَحَسِبْتُ زَيْدًا مُنْطَلِقًا
Zayd meni ketgan deb o'yladi va men ham Zaydni ketgan deb o'yladim.

3. Birinchi fe'l egani, ikkinchisi to'ldiruvchini taqozo qilgan holatda *ega* birinchi fe'lga *ega* vazifasida keluvchi "zamid" shaklida (son ko'rsatkichi shaklida) biriktiriladi va uni tushirib qoldirilmaydi. Masalan:

ضَرَبْتِي وَأَكْرَمْتُ زَيْدِينَ

So'zma-so'z: Meni u ikkisi urishdi va men ikki Zaydni hurmat qildim.

زَيْدِينَ وَأَكْرَمْتُ ضَرَبْتِي

So'zma-so'z: Meni ular urishdi va men Zaydlarni hurmat qildim.

4. Birinchi fe'l *to'ldiruvchini*, ikkinchisi esa *egani* taqozo qilgan holatda esa *to'ldiruvchini* keltirishga ehtiyoj bo'lmagan vaziyatda u birinchi fe'lga birikma olmosh shaklida biriktirilmaydi. Masalan:

ضَرَبْتُ وَضَرَبْتِي زَيْدَانِ ضَرَبْتُهُمَا وَضَرَبْتِي زَيْدَانِ deb aytiladi.

أَكْرَمْتُ وَضَرَبْتِي زَيْدُونَ أَكْرَمْتُهُمْ وَضَرَبْتِي زَيْدُونَ deb aytiladi.

Basra maktabining ikkinchi fe'lga ustunlik berishni afzal deb bilishi, asosan, naqliy (Qur'oni karim oyatlari) va aqliy (sintaktik yaqinlik va ma'no uyg'unligi) dalillarga tayanadi. Bu yondashuvda fe'lning otga yaqinligi va ma'noning ziddiyatsiz saqlanishi ustuvor omil sifatida qaraladi.

Kufa maktabi esa birinchi fe'lga ustunlik berishni qo'llab-quvvatlab, bunda adabiy (she'riy) dalillar va aqliy asoslarga tayanadi. Xususan, "الْإِضْمَارُ قَبْلَ الذَّكْرِ" holatidan qochish tamoyili ularning asosiy argumentlaridan biri hisoblanadi. Bu esa sintaktik izchillik va mantiqiy ketma-ketlikni saqlashga qaratilgan yondashuvdir.

Shunday qilib, ikki maktab o'rtasidagi ixtilof faqat formal qoida emas, balki tilda ma'no, mantiq va uslub o'rtasidagi muvozanatni qanday ta'minlash masalasiga borib taqaladi. Bu esa arab nahv ilmining nazariy chuqurligi va turli yondashuvlarga ochiqqligini namoyon etadi.

Kufa maktabi qarashiga ko'ra, otni boshqarishda birinchi fe'lga ustunlik berilgan vaziyatda esa, yuqorida o'tgan uchta holatdan kelib chiqib, yana quyidagi to'rt ko'rinish yuzaga keladi:

1. Ikkala fe'l *egani* (الْفَاعِلُ) taqozo qilganida *ega* ikkinchi fe'lga *ega* vazifasida keluvchi "zamid" shaklida (son ko'rsatkichi shaklida) biriktiriladi va uni tushirib qoldirilmaydi. Masalan:

ضَرَبْتِي وَأَكْرَمَانِي زَيْدَانِ

Ikki Zayd meni urishdi va meni hurmat qilishdi.

زَيْدُونَ وَأَكْرَمُونِي ضَرَبْتِي

Zaydlar meni urishdi va meni hurmat qilishdi.

2. Ikkala fe'l *to'ldiruvchini* (بِهِ الْمَفْعُولُ) taqozo qilgan holatda *to'ldiruvchini* ikkinchi fe'lga birikma olmosh shaklida biriktirish yoki tushirib qoldirish mumkin sanaladi. Masalan:

ضَرَبْتُ وَأَكْرَمْتُ زَيْدِينَ ضَرَبْتُ وَأَكْرَمْتُهُمَا زَيْدِينَ

So'zma-so'z: Men urdim va ikki Zaydni hurmat qildim.

3. Birinchi fe'l egani, ikkinchisi to'ldiruvchini taqozo qilgan holatda *to'ldiruvchini* ikkinchi fe'lga birikma olmosh shaklida biriktirish yoki tushirib qoldirish mumkin bo'ladi. Masalan:

ضَرَبْتِي وَأَكْرَمْتُ زَيْدًا ضَرَبْتِي وَأَكْرَمْتُهُ زَيْدًا

So'zma-so'z: Meni u urdi va men Zaydni hurmat qildim [6; 232-b.].

4. Birinchi fe'l *to'ldiruvchini*, ikkinchisi esa *egani* taqozo qilgan holatda esa *ega* ikkinchi fe'lga *ega* vazifasida keluvchi "zamid" shaklida (son ko'rsatkichi shaklida) biriktiriladi. Masalan:

ضَرَبْتُ وَأَكْرَمَانِي زَيْدِينَ

Ikki Zayd meni urishdi va meni hurmat qilishdi.

زَيْدِينَ وَأَكْرَمُونِي ضَرَبْتُ

Zaydlar meni urishdi va meni hurmat qilishdi.

Kufa maktabi qarashlari asosida tanazu' hodisasining amaliy qo'llanilishida yuzaga keladigan turli sintaktik ko'rinishlar aniq tizimga solingani kuzatiladi. Birinchi fe'lga ustunlik berilgan hollarda *ega* va *to'ldiruvchining* ifodalanishi, ayniqsa, olmoshlarning (zamirlarning) qo'llanilishi orqali aniqlashtiriladi.

Tahlil jarayonida aniqlanganidek, tanazu' uch asosiy holatda (*egaga* oid, *to'ldiruvchiga* oid va *aralash*) namoyon bo'lib, har bir holatda fe'llarning o'timli yoki o'timsizligi, shuningdek, ularning sintaktik talabi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa arab tili sintaksisining funksional moslashuvchanligi va yuqori darajadagi tizimlilikini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Basra va Kufa nahv maktablari o'rtasidagi ixtilof mazkur hodisaning nazariy asoslarini yanada boyitadi. Basra maktabi ikkinchi fe'lga ustunlik berish orqali sintaktik yaqinlik va ma'no uyg'unligini ustuvor deb bilsa, Kufa maktabi birinchi fe'lga ustunlik berish orqali mantiqiy izchillik va "oldin zikr — keyin ishora" tamoyilini himoya qiladi. Bu ikki yondashuv arab nahv ilmining ko'p qirrali va chuqur nazariy an'analarga *ega* ekanligini yaqqol namoyon etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, *at-tanazu'* hodisasi arab tili sintaksisida nafaqat grammatik qoida, balki ma'noni aniq va

ta'sirchan ifodalash vositasi sifatida ham muhim o'rin tutadi. Ushbu hodisani chuqur o'rganish arab tilining nazariy asoslarini anglash, shuningdek, amaliy nutqda uni to'g'ri va samarali qo'llash uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibn Hujib, Jamoliddin Usmon ibn Umar. *Al-Kafiya fi 'ilm an-nahw*. – Karachi: Maktabat al-Bushra, 2008. – B. 30. URL: [Al-Kafiya fi 'ilm al-nahw – Maktabat al-Bushra](#)
2. Jomiy, Nuriddin Abdurahmon. *Al-Favoid ad-Diyo'iyya al-mashhur bi-Mulla Jami fi sharh Kafiyat Ibn al-Hajib / tahqiq Ilyos Qabalan*. – Istanbul: Dar ash-Shifa, 2015. – 1-nashr. – B. 142. URL: [Al-Favoid ad-Diyo'iyya – 2015 nashri](#)
3. Ibn Hishom al-Ansoriy, Abdulloh ibn Yusuf. *Sharh Qatr an-nada wa ball as-sada; unga ilova: Sabil al-huda bi-tahqiq Sharh Qatr an-nada / Muhammad Muhyiddin Abdulhamid*. – 1-nashr. – Bayrut: Al-Maktaba al-Asriyya, 1994. – 654 b. – B. 192. URL: Milliy kutubxona katalogi – Sharh Qatr an-nada
4. Abul-Barakot Kamoliddin ibn al-Anboriy. *Al-Insof fi masoil al-xilof bayna an-nahviyyin al-basriyyin wa-l-kufiyyin / tahqiq va tadqiq J. M. M. Mabrok; taqriz R. Abd at-Tavvob*. – 1-nashr. – Qohira: Maktabat al-Xonji, 2002. – 736 b. – B. 79. – ISBN 977-353-003-5. URL: [Iraqi Knowledge Portal – Al-Insof fi masoil al-xilof](#)
5. As-Suyutiy, Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr. *Ham' al-havomi' fi sharh Jam' al-javomi' / tahqiq Ahmad Shamsuddin*. – 1-nashr. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1998. – 4 jildli. – J. 1. – B. 98. URL: [Ham' al-havomi' – Dar al-Kutub al-Ilmiyya nashri](#)
6. Ar-Radiy al-Astarobodiy, Muhammad ibn al-Hasan. *Sharh ar-Radiy li-Kafiyat Ibn al-Hajib / tadqiq Hasan ibn Muhammad ibn Ibrohim al-Hifziy*. – 1-nashr. – Riyod: Imom Muhammad ibn Saud Islom universiteti, 1993-. – 1-qism, 1-jild. – B. 232. URL: [CiNii Books – Sharh ar-Radiy li-Kafiyat Ibn al-Hajib](#)